

**QORAKO'L TUMANI TARIXI, XO'JALIGI, MAORIFI HAMDA
ILM FANDA ERISHGAN YUTIQLARI**

Yangiboyev Abdulaziz O'tkir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: yangiboyevabdulaziz53@gmail.com

Telefon raqami: +9989314 53353

Ne'matov Azizbek Tohir o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Email: nematovazizbek834@gmail.com

Telefon raqami: +998903774202

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qorako'lning tarixi, maorifi, xo'jaligi hamda ilm-fan yutiqlari haqida atroflicha fikr yuritilgan bo'lib manbalar tahlili asosida tahlil qilingan bo'lib hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Paykent, Masjidi-Jome', „Keng havz“ Qishloq xo'jaligining, 7 nafari TOP-100 ro'yxati.

Qorako'lni tarixda Paykent, Baykand va Qorako'l deb ham atashgan. Bir necha ming yillik „Zamon bobo“ madaniyati ham Paykentda joylashgan. Paykent islom dini kirib kelishidan oldin Turk xoqonliklari davrida saltanat markazlaridan bo'lgan. Arab tilida „p“ harfi mavjud bo'lmagani uchun uni Arab manbalarida „Baykand“ deb atashni boshlashgan. X asr da yashab ijod qilgan tarixnavis olim An-Narshaxiy Paykent haqida quyidagicha yozadi: Baykant (Paykant) — buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykant aholisi biron kishining Baykantni qishloq deb atashiga rozi bo'lgan emas. Baykantda katta Masjidi-Jome' va oliy imoratlar bo'lgan. 240 hijriy (milodiy 854—855) yilgacha Baykant darvozasi oldida ko'p rabotlar bo'lgan. Baykant aholisini hammasi savdogarlar bo'lgan. Ular Xitoy va dengiz bilan boradigan mamlakatlar bilan savdo qilishgan, juda boy bo'lishgan. Qutayba ibn Muslim Baykand juda mustahkam bo'lgani uchun olishga juda qiynaldi. Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o'z davrida Baykantni qayta qurishga buyurdi, ko'plab oliy imoratlar va Xoqon (Arslonxon) uchun juda hashamatli saroy qurildi. Baykandda juda ko'plab qamishzorlar va suv xaqoblari tutashgani uchun uni „Keng havz“ deganlar, Qorako'l ham deb atashgan. Zahridin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida Qorako'l viloyat deb, Muhammad Solihning „Shayboniynoma“ kitobida „Ko'chasi va qo'rg'oni mustahkam shahar“ deya ta'riflangan. 1821-yilda Amir Nasrullohxon imzosi bo'lgan hukmnomada ham Qorako'l viloyat deya yozilgan. Amir Haydar o'limidan so'ng Buxoroga kelgan E. Berns mang'itlar mamlakatini 9 ta viloyatga bo'lgan. Unda ham

¹ 1931-yildan „Qorako'l sadosi“ tuman gazetasi..34-bet.

Qorako‘l viloyat sifatida ta‘riflangan.1914—1916-yillarda amir qo‘shbegisi tomonidan ma‘muriy birliklar qayta ro‘yxatdan o‘tkazilgan, unda Qorako‘l tuman o‘laroq qayd qilingan. Qorako‘ldagi ko‘plab tarixiy obidalar mustabid Qizil imperiya davrida vayron qilindi. 1926-yil 29-sentyabrda Buxoro viloyati tarkibidagi tuman sifatida Qorako‘l tumani qayta tashkil qilindi.[1;89b] Qorako‘lda 52 umumiy ta‘lim maktabi, bolalar musiqa maktabi, kasb-hunar kollejlari, bitta akademik litsey, tuman markaziy kutubxonasi va uning tarmoqlari, klub muassasalari, madaniyat uylari, madaniyat va istirohat bog‘i bor. Tuman markaziy kasalxonasi, poliklinika, tug‘ruqxona, qishloq vrachlik, felsher-akusherlik punktlari, ambulatoriyalar, dorixonalar aholiga xizmat ko‘rsatadi.

Ushbu tumanda gazeta 1930-yildan boshlab „Bolshevik sur‘ati“ nomi ostida nashr qilina boshlagan. Muharrir Xo‘janazar Nafasov bo‘lgan. Keyinchalik „Kommunistik sur‘at“, „Olg‘a“ nomlari ostida chop etilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng gazeta „Qorako‘l sadosi“ nomi bilan chiqa boshladi. 2007-yildan tumanda Buxoro viloyat televideniyasining ²„Istiqlol“ telekanali filiali o‘laroq „Olot-Qorako‘l“ televideniyasi ish boshlagan.[2;90b] Tumanda paxta tozalash, g‘isht zavodlari, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxonalar, neft bazasi, don mahsulotlari aksiyadorlik jamiyati, dehqon bozori ishlab turibdi. Kichik, o‘rta va yirik biznes korxonalarini, mikrofirmalar, „Qorako‘l teks“ qo‘shma korxonasi faoliyat ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, polizchilik. Pillachilik ham rivojlangan. Shirkat, dehqon, fermer xo‘jaliklari mavjud. Sug‘oriladigan maydonlarga paxta, g‘alla, kartoshka, sabzavot va poliz, yem-xashak ekinlari ekiladi. Mevazor, tokzor, tutzorlar bor. Tumandagi jamoa va shaxsiy xo‘jaliklarida qoramol, qo‘y va echki, parranda, shuningdek, tuya boqiladi. Pedagoglarning 26 ming 145 nafari, ya‘ni 91,5 foizi oliy, 116 nafari (0.4%) tugallanmagan oliy, 2 ming 314 nafari, ya‘ni 8,1 foizi o‘rta maxsus ma‘lumotli. O‘qituvchilarning 1 ming 716 nafari (6%) (Respublikada 1-o‘rinda) oliy toifali, 5 044 nafari (17.7%) birinchi toifali, 8 461 nafari (29.6%) ikkinchi toifali, 10 924 nafari (38.2%) mutaxassis toifalidir. Ayni paytda viloyat pedagoglarining o‘rtacha bilimi 60,5 foizni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich bo‘yicha viloyat xalq ta‘limi respublikada 1-o‘rinda turadi. Bu boradagi ko‘rsatkichlarni yanada oshirish maqsadida aniq rejalar belgilab olingan. O‘qituvchilar uzluksiz malaka oshirish kurslariga yo‘naltirilib, joriy yilda 7 ming 25 nafar pedagogning malakasi oshirilgan. Buxoro davlat universiteti bilan hamkorlikda qisqa muddatli malaka oshirish kurslari tashkil etilib, bunda barcha pedagoglarning ishtiroki ta‘minlanmoqda. Xalq ta‘limi vazirligi tashabbusi bilan xalqaro tajribalar asosida pedagoglarning salohiyatini oshirish, ta‘lim sifatini yanada yuksaltirish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Ayni paytda mazkur loyihalar doirasida

2.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi200-2005- yil.34-bet.

Rossiyadan 2 nafar fan metodisti va 5 nafar malakali o‘qituvchi tashrif buyurdi. Ikki nafar metodist hududiy malaka oshirish markazida, 5 nafar o‘qituvchi Olot, Qorako‘l, Romitan, Shofirkon va G‘ijduvon tumanlaridagi maktablarda faoliyat olib bormoqda. Ta‘lim muassasalarida chet tillarining o‘qitilishiga alohida e‘tibor qaratib, chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma va sertifikatga ega bo‘lgan o‘qituvchilar soni (SEFR va boshqa) 11 foizdan 16 foizga oshiriladi. Bu borada “English Speaking Nation” dasturi asosida viloyatga jalb qilingan ikki nafar xalqaro ekspert bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Viloyat ta‘limi mamlakatda yetakchi o‘ringa ega. Qorako‘l Xalqaro matematika maktabi qator yillardan buyon xalqaro³ va jahon fan olimpiadalaridagi yutuqlari bilan O‘zbekiston sharafiga munosib tarzda himoya qilib kelmoqda. Bugun Qorako‘l xalqaro matematika maktabi nafaqat viloyatda balki, butun respublikamizda o‘quvchilarga chuqur bilim berish bo‘yicha “Mahorat maktabi” vazifasini o‘tamoqda. 2020 yilda viloyatda matematika fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 4 ta, kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan 3 ta, informatika va axborot texnologiyalari fanini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan 1 ta maktab faoliyat boshladi. Peshko‘ tumani hududidagi 4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi negizida tabiiy fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab tashkil etildi. 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab yana 6 ta matematika, 4 ta kimyo-biologiya, 5 ta informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etiladi. 2020 yilda 25 ming 413 nafar maktab bitiruvchilaridan 6 ming 669 nafari turli OTMsi talabasiga aylandi. Bu bitiruvchilarning 26 foizini tashkil etmoqda. Natijalar salmog‘ini yanada yuksaltirish maqsadida OTM – MAKTAB hamkorlik loyihasi asosida bitiruvchilarni oliy o‘quv yurtlariga kirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha past natijaga erishgan viloyatdagi 20 ta umumta‘lim maktabi oliy ta‘lim muassasalariga biriktirildi. Buxoro davlat universiteti tomonidan viloyat xalq ta‘limi boshqarmasi bilan hamkorlikda 4 ta maktabda fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish bo‘yicha maxsus guruhlar tashkil etildi. Viloyatda “Bir million o‘zbek dasturchisi” loyihasi doirasida uzbecoders.uz portalidan ro‘yxatdan o‘tganlar soni 7 ming 97 nafarni tashkil etmoqda. Ularning 2 ming 170 nafari ishtirokchi sertifikatiga ega bo‘lgan. 1 ming 269 nafari bitiruvchi sertifikatini qo‘lga kiritgan. Loyiha doirasida o‘tkazilgan tanlov natijalariga ko‘ra, viloyat o‘qituvchilarining 7 nafari TOP-100 ro‘yxatidan o‘rin olgan. 8 nafar maktab o‘quvchisi loyiha sovrindorlari sifatida 3 milliondan 6 milliongacha pul mablag‘larini qo‘lga kiritgan. Maktablarning moddiy texnik bazasini mustahkamlash va infratuzilmasini yaxshilash masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Joriy yilda viloyatda investitsiya dasturlari asosida 18 ta, mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan 6 ta maktabda qurilish-ta‘mirlash i⁴shlarini amalga oshirish belgilangan. Shuningdek,

³ <https://uza.uz/oz/posts/buxoro-xalq-talimi>.

⁴ <https://zenodo.org>

Buxoroda Prezident maktabi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Matematika, axborot texnologiyalari, kimyo-biologiya va fizikaga ixtisoslashgan 16 ta maktab tashkil etiladi.

Matbuot anjumanida ommaviy axborot vositalari xodimlari, mustaqil jurnalist, bloggerlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutasaddilaridan atroflicha javob oldi.[3;121b]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Qorako'l tumani respublikamizdagi ko'zga ko'ringan hamda e'tiborga molik makonlardan biri bo'lib tarixi, Poykandga borib taqalar ekan. Bu haqda biz Narshaxiyning Buxoro tarixi asaridan bilishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Buxoro viloyati Qorako'l tumani hokimligi. Tarixidan.
2. Isroil Nazarov, Umar Rashidov. „Qorako'l tumani“ O'zME. Q-harfi Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Narshaxiyning" Buxoro tarixi " asaridan
4. Sadulla G'aybullayev Qoraqul: Tarix imoratining emirilmas toshi (Tadqiqot Uchun Tезислар) Алишер Навоий Номидаги Ўзбекистон Миллий Кутубхонаси Нашриёти, Тошкент — 2014 йил